

**MUROJAAT SHAKLI IFODASINING EXTRALINGVISTIK
VOSITALARI**

*Ziynatjon Yusupova, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezisdan murojaat shakli ifodalanishining ekstralingvistik usul va vositalaridan ishora-harakat- jestikulyatsion, tovush - fonatsion hamda rang vositalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. Murojaat shakli, ekstralingvistik usul, rang vositalari, imo- ishoralar, paralingvistika, nutq san'ati, so'z tili, imo-ishora tili.

Абстрактный. В этом тезисе анализируются экстралингвистические способы и средства выражения формы обращения: жестово-двигательно-жестикულიрующие, звуко-фонационные и цветовые средства.

Ключевые слова. Форма обращения, экстралингвистический метод, цветовые средства, жесты, паралингвистика, речевое искусство, устная речь, язык жестов.

Abstract. The thesis analyzes extralinguistic methods and means of expressing the form of address: gestural-motor-gesticulating, sound-phonation and color means.

Keywords. Form of address, extralinguistic method, color means, gestures, paralinguistics, speech art, oral speech, sign language.

Odamlar uzoq asrlar mobaynida imo-ishoralar yordamidan unumli foydalanishgan. Shu sababli ko'plab imo-ishoralar tilidan, dinidan, millatidan qat'iy nazar tushunilaveradi. Bu xususida tilshunos olim V.N.Teliya¹ shunday deydi: "Imo-ishoralarning tarjimoni bo'lmaydi. Paralingvistika so'z ma'nosining ochilishiga xizmat qilish bilan birga, tinglovchini o'ziga rom qilish xususiyati ham mavjud".

¹Телия В.Н. Актуальные направления современной лингвистики: Тезисы конференции молодых научных сотрудников и аспирантов. – М.: Наука, 1989. – 134с.

Xususan, L.S.Vigotskiy nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishini ibtidoiy odamlarda imo-ishoralarni tasvirlovchi hamda ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlaydi. Ibtidoiy odamning tili, aslini olganda, ikki xil tildir: birinchi tomondan, so'z tili, ikkinchi tomondan, imo-ishora tili. Ibtidoiy odamlar tili predmet obrazlarini ifodalaydi, bu obrazlarni ular o'z ko'zi va qulog'i bilan qanday tasavvur etsa, shunday ifodalaganlar. Har bir jumla murakkab shaklda bo'lib, unda imo-ishora, tovushlar birlashgan². Ma'lumki, L.S.Vigotskiy insonda his va kechinmalar kechishini psixologik jarayon sifatida tadqiq qilib, noverbal kommunikatsiya vositalari orqali bu tuyg'ularning ifodalanishini insonning ongli va ong osti faoliyati bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Noverbal kommunikatsiya vositalari his tuyg'uni ifodalovchi vosita bo'lish bilan birga uni muloqotning boshqa ishtirokchilaridan sir tutuvchi vosita sifatida ham qaralishi mumkin.

Murojaat shakli ifodalanishining ekstralingvistik usul va vositalari shartli ravishda uchga bo'linishi mumkin:

1. Ishora-harakat- jistikulyatsion vositalar;
2. Tovush - fonatsion vositalar;
3. Rang vositalar.

Jonli so'zlashuv nutqida suhbat jarayonidagi ekstralingvistik vositalar vizual bo'lib, ular hech qanaqa izoh talab qilmaydi. Biroq og'zaki jonli nutq yozuvga ko'chganda muallif-hikoya qiluvchi izohiga ehtiyoj tug'iladi. Bu izoh murojaat tarzini bayon etadi, jonlantirib "qiyofalantiradi", "suratlashtiradi". Ishora-harakat ana shunday vositalardan bo'lib, muallif-hikoyachi uni o'z izohi orqali ko'rsatadi, holatni "chizish" orqali konkretlashtiradi³. Shu o'rinda noverbal kommunikatsiya vositalariga nisbatan ekstralingvistik vosita deb qarash, tushuncha mazmunining kengayishi deb hisoblansada, ayni muloqot jarayonida inson tana a'zolari ishtirokidagi muloqotga nisbatan noverbal kommunikatsiya vositalari atamasi qo'llash ma'qul.

²Выготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения. – Москва, 1993. – С.93-95.

³ Akbarova Z. "O'zbek tilida murojaat shakllari. – Toshkent: "Akademnashr". 2015. 46-bet.

Ishora-harakat ekstralingvistik vosita sifatida xilma-xildir. Bulardan ko'plari inson tana a'zolari harakatlari bilan bog'lanadi⁴. Bunda qo'l inson tana a'zolaridan eng faoli sanaladi, bundan tashqari ko'z, qosh, qovoq, yuz, lab kabilar ham murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositasi sifatida vazifa bajaradi.

Odatda fikr almashish va suhbat jarayonida so'zlovchining turli qo'shimcha harakatlariga ehtiyoj bo'lmaydi. Bunday ehtiyoj so'zlovchining psixologik muvozanati izdan chiqqan hollarda vujudga keladi. Psixologik muvozanat⁵ yo ijobiy tuyg'ular bilan, yo salbiy hissiyotlar qo'zg'alishi bilan buziladi, buning natijasida jestikulyatsiya vositalari fikr ifodalashning emotsional jihatdan to'ldiruvchisi bo'lib keladi. Nutq jarayonidagi psixologik holatning ana shu jihatlari tufayli dunyodagi ba'zi xalqlarda tana harakatlarining rasmiy qoidalari shakllangan.

Murojaat shakli ifodalanishida rang ham o'z mavqeyiga ega. Rangga bo'lgan munosabat turli chorlov murojaatlari uchun xizmat qiladi. Masalan, oq bayroq ko'tarilishi yengilganlikni ifodalaydi, shu orqali: a) jangni davom ettirmaslikka murojaat; b) g'olib tomon mag'lub tomonni maxv etmasligiga, butunlay yo'q qilib yubormaslikka murojaat; d) g'olib tomon mag'lub tomonni eshitishiga murojaat kabi qator ma'nolar anglatiladi.

O'zbek xalqi milliy ruhiyatida boshqa ko'p xalqlar qatori qora rangga bo'lgan munosabat salbiy qarash va tushunchalar bilan shartlanib qolgan. Oq, qizil yaxshilik belgisi sifatida baholanadi⁶. Murojaat asnosida kishining yuzidagi rang o'zgarishlari ham murojaatni mazmunan to'ldiradi.

Murojaat shaklining ekstralingvistik vositalari muallif-hikoyachi izohidan ma'lum bo'ladi. Bu izohlarda murojaat shaklining tarzi aniq va konkret tus oladi⁷. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot shakllari verbal hamda noverbal munosabatga asoslanadi. Bunday munosabat mohiyatida mazmuniy struktura yetakchilik qiladi. Ilmiy adabiyotlarda mazmuniy struktura grammatik formalar bilan ifodalanishi alohida ta'kidlanadi, xususan, har bir gapning real borliq haqida

⁴ Akbarova Z. "O'zbek tilida murojaat shakllari. –Toshkent: "Akademnashr". 2015. 47-bet.

⁵ Такасами Ч.М., Косарев В.Д. Кто вы, айны? –М.: Мысль, 1990. –С.249 -250; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.83-86.

⁶ Akbarova Z. "O'zbek tilida murojaat shakllari. –Toshkent: "Akademnashr". 2015. 53-bet.

⁷ Yuqoridagi manba. 59-bet.

biror fikr, xabar bayon qilishi gap mundarijasining voqelik bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi⁸. Ma'lumki, predikativ shakllar gapning mazmuniy strukturasi shakllantiradi. Ifodaning mazmuniy struktur sathida so'zlovchi yoki tinglovchining ichki maqsadi o'z aksini topadi. Ana shu mazmuniy sathga xos so'zlovchining kommunikativ niyati sathning semantik, pragmatik va semiotik birliklari sifatida ushbu tadqiqot mohiyatini tashkil qiladi.

M.A.Qurbonovanning⁹ fikriga ko'ra, nutq jarayonida imo-ishora, mimik ifodalarning verbal birliklar bilan yonma-yon qo'llanishi nutqning ta'sir kuchini oshirishi bilan birga, tinglovchi tomonidan uning aniq tushunilishiga imkon yaratadi.

Z.G.Karimova "O'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari"¹⁰ mavzusidagi dissertatsiyasining 3.6 faslida so'z-gaplarning noverbal kommunikativ vositalar yordamida ifodalanishini ingliz va o'zbek tillari misolida tahlilga tortib, chog'ishtirilayotgan tillarda so'z-gaplarning ekstralingvistik jihatlaridagi farq va o'xshashliklarni ko'rsatib bergan.

Muloqotning noverbal vositalari, shuningdek, uning lingvomadaniyatshunoslik va ijtimoiy lingvistika, kognitiv lingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi fanlar bilan aloqalari paraverbal vositalarning tushuncha mohiyatini, ularning tuzilmaviy va semantik jihatlarini, ularning turli muloqot vaziyatlarida qo'llanilishining xususiyatlarini tadqiq etuvchi butun dunyo olimlarining diqqat markaziga aylandi.

⁸ G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 1987. 37-bet.

⁹ Курбонова М.А. Ўзбек болалар нуткининг прагматик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дисс... – Тошкент. 2018. – Б. 204.

¹⁰ Karimova Z.G. "O'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari" disser.avtoreferati, Тошкент-2021. Б. 23.

www.tadqiqotlar.uz